


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1- noyabr holatiga ko'ra

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

6



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2752 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,2 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 121,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 113,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 150,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishning 114,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2291 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 101,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 115,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 114,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 31,2 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 5 237 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,6 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 129,3 % ga (jami savdodagi ulushi 69,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 115,6 % ga (jami savdodagi ulushi 22,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 137,1 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

8

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

383



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



86

yashash bo'yicha xizmatlar



1 150

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1236 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 110,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yichaxizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 103,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

18 032
ro'yxatdan o'tgan

1 047
kichik korxonalar

16 985
mikrofirmalar

17 365

faoliyat
ko'rsatayotgan

1 041
kichik korxonalar

16 324
mikrofirmalar

3 377


2020- yilda yangi
tashkil etilgan

50
kichik
korxonalar

3 327
mikrofirmalar


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 1588 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 577 taga yoki 157,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1492 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 511 taga yoki 152,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 537 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196 taga yoki 157,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 12640 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2260 taga yoki 121,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12242 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2101taga yoki 120,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2364 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 100,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 168 tani tashkil etib, ulardan 164 tasi yoki 97,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 20 taga yoki 113,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

	2019- yil	2020- yil
Jami	30	12
shu jumladan:		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	6
Sanoat	11	5
Qurilish	3	1
Savdo	8	
Tashish va saqlash	1	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	65	77	112	144	164
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12	15	32	34	42
Sanoat	40	45	55	70	82
Qurilish	3	3	3	6	6
Savdo	6	9	15	21	20
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	2	3	4
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	2	5	6

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13

■ O'sish sur'ati ■ 2020- y. ■ 2019- y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	164	93	71
tumanlar:			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	28	20	8
Nukus	9	6	3
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	5	3	2
Nukus sh.	39	21	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 23,8 %), Mo'ynoq 28 ta (17,1 %), Qorao'zak va Taxiatosh 11 tadan (6,7 %), Beruniy 10 ta (6,1 %) hamda Nukus tumanida 9 tani (5,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,9 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo'ng'iroq (5,5 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,8 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,7 %), Qanliko'l (2,7 %), Mo'ynoq (2,5 %), Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (2,1 %) hamda Bo'zatov (1,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (22,0 %), To'rtko'l (9,5%), Beruniy (7,4 %), Ellikqal'a (7,1 %) , Amudaryo (6,3 %), Qong'iroq (6,0 %), Xo'jayli (5,5 %), Nukus (5,3 %), Taxiatosh (3,9 %), Mo'ynoq (3,8 %), Taxtako'pir (3,7 %), Chimboy (3,6 %), Shumanay (3,4 %), Bo'zatov (3,3 %), Kegeyli (3,1 %), Qonliko'l (3,1 %) va Qorao'zak (3,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.



**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to‘g’ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Hududlar kesimida har 1000 aholiga to‘g’ri keladigan
kichik korxona va mikrofirmalar soni²⁾**

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)




¹⁾ 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tumanlar (shaharlar) fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashlari ma‘lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra shakllantirilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (34,7 %), To'rtko'l (11,2 %), Beruniy (7,2 %), Amudaryo (6,4 %), Nukus (5,6 %), Qo'ng'irot (5,0 %), Xo'jayli (4,9 %), Ellikqal'a (4,2 %), Chimboy (3,7 %), Qorao'zak (3,3 %), Kegeyli (2,9 %), Mo'ynoq (2,9 %), Taxiatosh (2,4 %), Shumanay (1,6 %), Qonliko'l (1,6 %), Bo'zatov (1,2 %) va Taxtako'pir (1,2 %) tumanlari hissasiga tegishli.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yichasoni

(2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

19



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (15,2 %), Beruniy (12,1 %), Amudaryo (11,7 %), To'rtko'l (11,1 %), Qonliko'l (9,5 %), Taxiatoш (5,2 %), Ellikqal'a (5,1 %), Xo'jayli (4,5 %), Nukus (2,8 %), Qorao'zak (2,6 %), Qo'ng'irot (2,6 %), Mo'ynoq (2,4 %), Shumanay (2,1 %) Kegeyli (0,9 %), Chimboy (0,7 %), Bo'zatov tumanlari (0,4 %) va Nukus shahri (11,1 %) ulushlarini qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistical Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for 'Bayron', 'Gero', 'Madhiya', 'Shaxsiy kabinet', and social media icons for Facebook, Twitter, and YouTube. Below the header, there's a search bar and a 'Qidirish' button. The main content area features the title 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI' and the 'UZSTAT' logo. A sidebar on the left lists various statistical categories like 'E'lon qilish raqimi', 'Metamalumotlar', etc. The central part of the page shows a modal window for entering a registration number, with fields for 'Rasmidagi kodini kiriting' and 'Qidiruv'. To the right, there's a sidebar titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' listing useful materials such as 'Aholini royxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**
Tel.: 61 224-92-09